



MADANIYATALARARO MULOQOTDA VERBAL VOSITALARNING O'RNI VA XUSUSIYATLARI

**Mubinaxon Yusufova**

*Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi*

+998772312430

[mubinaxonyusufova@gmail.com](mailto:mubinaxonyusufova@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada madaniyatlararo muloqotda verbal vositalarning o'rni va o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Turli madaniyatlarda tilning kommunikativ funksiyasi, yuqori va quyi kontekstual madaniyatlar farqi hamda G'arb va Sharq nutqiy xulqidagi tafovutlar yoritilgan. Verbal muloqotning ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashdagi ahamiyati asoslab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *madaniyatlararo muloqot, verbal kommunikatsiya, kontekstual madaniyat, nutq madaniyati, til va madaniyat.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются роль и особенности вербальных средств в межкультурной коммуникации. Освещаются коммуникативные функции языка в различных культурах, различия между высоко- и низко контекстуальными культурами, а также особенности речевого поведения Запада и Востока. Обоснована значимость вербальной коммуникации в обеспечении социальной гармонии.*

**Ключевые слова:** *межкультурная коммуникация, вербальная коммуникация, контекстуальная культура, речевая культура, язык и культура.*

**Abstract:** *This article analyzes the role and specific features of verbal means in intercultural communication. It highlights the communicative function of language in different cultures, the distinction between high- and low-context cultures, and the differences between Western and Eastern speech behavior. The importance of verbal communication in maintaining social harmony is substantiated.*

**Keywords:** *intercultural communication, verbal communication, contextual culture, speech culture, language and culture.*

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning qariyb to'rt dan uch qismi nutqiy, ya'ni verbal muloqot orqali amalga oshadi<sup>45</sup>. Muloqot jarayonida insonlar o'zaro fikr, qiziqish, kayfiyat va hissiyot almashadilar. Shu bois har bir madaniyat vakillari samarali aloqa o'rnatish va bir-birini tushunish uchun o'ziga xos til tizimini shakllantirgan. Ilmiy adabiyotlarda til orqali amalga oshiriladigan muloqot shakllari verbal vositalar deb yuritiladi. Verbal muloqot — bu suhbatdoshlar o'rtasida fikr, ma'lumot va emotsional holatlarning til vositasida almashinish jarayonidir.

<sup>45</sup> Юсупов И.М. Психология взаимопонимания. Казань, 1991. - С. 100.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Sotsiallashtirish va inkulturatsiya jarayonida inson atrof-muhitni idrok etishning o'ziga xos usullarini o'zlashtiradi. Bu jarayonda til muhim vosita bo'lib xizmat qiladi: aynan til orqali borliq baholanadi va talqin etiladi. Faoliyatga oid turli qarashlar tilda aks etib, u yordamida boshqalarga yetkaziladi. Shu sababli madaniyatlararo muloqotda tilni kommunikativ vosita sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir.

Verbal muloqotning asosiy vositasi sifatida til qo'llanganda, har bir so'z yoki tovush o'ziga xos ma'noga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Muayyan til egalari uchun bu ma'no umumiy va tushunarli hisoblanadi hamda o'zaro anglashuvni ta'minlaydi. Biroq zamonaviy manbalarda dunyoda 2800 dan 6000 gacha til mavjudligi qayd etiladi. Har bir til o'z egalari xos bo'lgan dunyo tasvirini shakllantiradi. Shu bois turli til vakillari o'rtasidagi muloqotda ayrim tushunchalarning to'liq ekvivalenti topilmasligi yoki umuman mavjud bo'lmasligi mumkin. Bunday nomutanosibliklar ko'pincha faqat ma'lum bir madaniyatga xos predmet va hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Natijada tillararo o'zlashuv jarayoni yuz beradi va begona tushunchalar asl ma'nosida qo'llanadi.

Demak, madaniyatlararo muloqot turli madaniyat vakillarining verbal elementlarga bo'lgan munosabati tufayli murakkablashadi. Ayniqsa, yuqori va quyi kontekstual madaniyatlar o'rtasidagi farqlar muhim ahamiyat kasb etadi. Quyi kontekstual madaniyatlarda faqat so'zning o'zi yetarli emas – uning qaysi vaziyatda, kim tomonidan va qanday shaklda aytilgani ham hisobga olinadi. Mazkur omillar uyg'unligida ifodaning to'liq ma'nosi anglashiladi.

Yuqori kontekstual madaniyatlarda esa ayrim hollarda so'zning o'zi ham yetarli bo'lishi mumkin. Boshqacha aytganda, madaniyatlar ma'noning qanchalik darajada kontekstga bog'liqligi bilan farqlanadi. G'arb mamlakatlarida qadimdan rivojlangan notiqlik an'analari verbal xabarlarining ustuvorligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv mantiqiy, ratsional va analitik tafakkurga asoslanadi. G'arb madaniyatida nutq ko'pincha suhbat kontekstidan mustaqil tarzda qabul qilinadi va so'zlovchi bilan tinglovchi ikki mustaqil subyekt sifatida ko'riladi<sup>46</sup>.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Osiyo va Sharq madaniyatlarida sotsiomadaniy kontekst yetakchi o'rin tutadi. Bu hududlarda so'zlar kommunikativ vaziyatning ajralmas qismi hisoblanib, muloqot ishtirokchilarining shaxsiy xususiyatlari va o'zaro munosabatlarini ham qamrab oladi. Verbal ifodalar axloqiy, psixologik va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi. Bu yondashuv ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli Sharq madaniyatlarida asosiy e'tibor nutq qurilishidan ko'ra uni qanday ohangda va qaysi ijtimoiy maqomga mos holda aytilishiga qaratiladi.

Masalan, nemis tilida “nein heißt nein” (“yo'q – bu yo'q”) va “versprochen heißt versprochen” (“va'da berildimi – bajariladi”) kabi qat'iylikni ifodalovchi iboralar

<sup>46</sup> Садохин А.П. Введение в теорию межкультурной коммуникации. М., Высш.шк., 2005. 310 с. – С.155.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

mavjud<sup>47</sup>. Osiyo madaniyatlarida esa soʻzga ehtiyotkorona yondashuv ustun. Bu jamiyatlarda insonlar keskin va qatʼiy inkor ifodalaridan koʻra muloyimlikni afzal koʻradilar. Ular uchun koʻpincha muloqotning emotsional jihati mazmuniy aniqlikdan muhimroq hisoblanadi.

Koʻplab Osiyo tillarining tuzilishi ham ikki maʼnolilikka moyillikni koʻrsatadi. Masalan, yapon tilida feʼl gap oxirida kelgani sababli fikrni toʻliq anglash uchun gapni oxirigacha tinglash zarur. Hatto oddiy suhbatda ham yapon suhbatdoshi haqiqiy rozilik boʻlmasa-da, “hai” (“ha”) deb javob berishi mumkin. Andisha sababli imkonsiz ishga vaʼda berish yoki taklifni ochiq rad etmaslik holatlari oʻzbek nutq madaniyatida ham uchraydi.

Til imkoniyatlarining cheklanganligini anglash Osiyo madaniyatlarida axloqiy meʼyorlarga yuqori eʼtibor berilishiga olib kelgan. Bu jamiyatlarda aytilgan soʻz bilan nazarda tutilgan maʼno oʻrtasida farq boʻlishi mumkinligi yaxshi tushuniladi. Shu bois tasdiq va inkor ifodalarida ehtiyotkorlik ustuvor boʻlib, xushmuomalalik koʻpincha haqiqatdan ustun qoʻyiladi. Masalan, yapon madaniyatida suhbatdoshga toʻgʻridan-toʻgʻri “yoʻq” deyish deyarli qoʻllanmaydi.

Xitoyliklar bilan rasmiy muzokaralarda ham oʻziga xos kommunikativ qoidalar mavjud. Koʻpincha suhbatdosh birinchi boʻlib tashabbus koʻrsatishi kutiladi. Agar muzokaralar Xitoy hududida oʻtsa, “mehmon birinchi gapiradi” tamoyiliga amal qilinishi mumkin. Shu bois xitoylik hamkorlardan birinchi boʻlib fikr bildirishni kutish koʻpincha samarasiz boʻladi<sup>48</sup>.


Umuman olganda, Osiyo va Sharq madaniyatlarida verbal vositalar bilvosita va kontekstga bogʻliq tarzda qoʻllansa, Yevropa va AQSH madaniyatlarida fikr odatda aniq, toʻgʻridan-toʻgʻri va loʻnda ifodalanadi. Gʻarb vakillari muloqotda sukutdan qochib, oʻz fikrini ochiq bayon etishga intiladilar. Ular uchun kommunikativ jarayonning sotsiomadaniy konteksti ikkilamchi hisoblanadi va ochiq ifoda yuqori baholanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Юсупов И.М. Психология взаимопонимания. Казань, 1991. - С. 100.
2. Садохин А.П. Введение в теорию межкультурной коммуникации. М., Высш.шк., 2005. 310 с. – С.155.
3. Paziljanova Z.S. Zamonaviy nemis tili darsliklari vositasida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi. Ped.fan.boʻyicha fals.doktori (PhD) dissertatsiyasi. Qoʻqon, 2022. B.147.
4. Usmanova Sh., Rixsieva G. Madaniyatlararo muloqot. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 2017. B.132.

<sup>47</sup> Z.Paziljanova. Zamonaviy nemis tili darsliklari vositasida talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi. Ped.fan.boʻyicha fals.doktori (PhD) dissertatsiyasi. Qoʻqon, 2022. B.147.

<sup>48</sup> Usmanova Sh., Rixsieva G. Madaniyatlararo muloqot. Oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 2017. B.132.





**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS**

5. Sabirjanovna, P. Z. (2022). A model for developing students' communicative competence by teaching them intercultural communication. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10 (11), 680–683: 680.

